



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - iyul

VI-67-136-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning ijrosi to'g'risida

Bulung'ur tumanida 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning ijrosi to'g'risida tuman hokimi o'rinbosarlarining hisobotlari eshitilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung'ur tumanida 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning ijrosi to'g'risida tuman hokimi o'rinbosarlarining hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmuratov, A.Rizayev, A.Xalikulov, A.Buriboyev)ga:

2022-yil uchun ishlab chiqilgan "Yo'l xarita"larini o'z vaqtida samarali ijrosini ta'minlash;

tumanda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, shu orqali kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish borasida qilinayotgan ishlarni yanada jadallashtirish;

xorijiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'zlashtirish, hududiy eksport prognoz ko'rsatkichlarini oyma-oy bajarilishini ta'minlash, bu borada salohiyatli investorlarni jalb etish, eksportyor korxonalar faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni qisqa muddatlarda tezkorlik bilan bartaraf etish, bu borada sektor

rahbarlariga ko‘maklashish;

tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini doimiy va manzilli o‘rganish borasida hamkorlikda olib boriladigan tizimli faoliyatini tashkil etish va natijasi yuzasidan xalq oldida hisobot berishni tashkil etish va ularning mas’uliyatni oshirish vazifalari yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislariga, Bulung‘ur tumanida 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ijrosini bajarilishi ahvolini monitoring qilib borish tavsiya qilinsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)larga joriy yil uchun ishlab chiqilgan “Yo‘l xarita”larining ijrosi yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar (tadbirlar)ni “Bulung‘ur hayoti” gazetasida shuningdek, rasmiy internet-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, muntazam ravishda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislariga va ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov